



**NAQSHBANDIYA TARIQATI SILSILASI VAKILI ESHMUHAMMAD
ESHON XALIFANING HAYOTI VA FAOLIYATI**

Sevaraxon Karimova Ilhomjon qizi

Oriental universiteti tarix yo'nalishi 2 – kurs magistranti

Telefon : 93-114-73-93; 93-988-37-67

Annotatsiya: Ushbu maqola Eshmuhammad xalifa eshon ziyoratgohlari "Parpi ota", "Qorixona", "Chilmahram", "Saroyxonaqohpirim" va "Sarmozor gumbarz maqbarasi" to'g'risida. Xalqimiz bunday aziz – avliyolar, tariximizda yaxshilik, ezhulik, marifat ishlarini qoldirgan mo'tabar insonlarning poyi xoklarini asrab – avaylab kelmoqda. Eng muhimi ziyoratgohlarning barchasida zilol, shifobaxsh buлоqlar, bu buлоqlar atrofida so'lim tabiat go'shalari tashkil topgan.

Kalit so'zlar: avliyo, xalifa, eshon, ziyoratgoh, qorixona, chilmakram, maqbara, tarix.

Abstract: This article is about Eshmuhammad khalifa Eshon shrines "Parpi ota", "Korikhona", "Chilmahram", "Saroykhanakahpirim" and "Sarmozor gumbarz mausoleum". Our nation has been protecting the legacy of such saints, dignified people who left behind good, noble and enlightened works in our history. The most important thing is that in all the shrines there are beautiful, healing springs, and around these springs there are peaceful nature corners.

Key words: saint, caliph, eshan, shrine, chilmakhram, tomb, history.

Аннотация: В данной статье речь идет о святыниах Эшмухаммад халифа Эшон «Парпи ота», «Корихона», «Чилмахрам», «Саройханокахпирим» и «мавзолее Сармозор гумбарз». Наши народ хранит наследие таких святых, достойных людей, оставивших после себя добрые, благородные и просвещенные дела в нашей истории. Самое главное, что во всех святынях есть красивые целебные источники, а вокруг этих источников – умиротворяющие уголки природы.

Ключевые слова: святой, халиф, эшан, святыня, святыни, чилмахрам, гробница, история.

O'zbekiston tarixiy va madaniy meroslarga boy millat, hususan Islom olamidagi eng peshqadam avliyo – yu, ulamolarga beshik bo'lgan muqaddas zamindir. Yangi O'zbekistonda tarixiy haqiqatni tiklash jarayonida islam tasavvufi tarixida chuqur iz qoldirgan naqshbandiya tariqati silsilasi peshqadam vakillaridan biri Eshmuhammad eshon xalifa hayoti va faoliyati hamda ziyoratgohlarini tadqiq etish muhim ahamiyatga egadir. Hazrat Eshmuhammad eshon xalifa 1780 – yil Qo'qon shahar Beshariq tumani Chorvoqturong'i qishlog'i Abdumannof maxsido'z oilasida tavallud topgan. Uning



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ajdodlari Hazrat Alining do'sti Ahtam sahabaga yetib boradi va ziyoratgohi Toshkent viloyati Nurafshon shahrida joylashgan[1.–B.30]. Eshmuhammad eshon xalifada Alloh taoloning ne'mati “Aynul yaqiyin” ilmi bor edi, yaqiyin lug'atda “shaksiz ilm” ma'nosini bildiradi. Istelohda yaqiyin – ko'ruchining hujjat va dalil bilan emas, balki iymon quvvati vositasi bilan ko'rishi demakdir. Ya'ni “Aynul yaqiyin” – o'z ko'zi bilan ko'rishlikdan hosil bo'lib, xos ulamolar va avliyolarga xosdir. Bunday xoslik bilan yoshlikdan ilm izlagan Eshmuhammad eshon xalifa Afg'onistonning Hirot viloyati Karrux tumaniga borib, naqshbandiya – mujaddidiya tariqati pirlaridan Muhammad Islom shayxdan qorixonasida ta'lif oldi. Hazrat Eshmuhammad eshon xalifaning piri Muhammad Islom shayx o'z davrida naqshbandiya – mujaddidiya tariqatida So'fi Ollohyordan keyin silsilani davom ettirgan xalifasi G'oyib Nazarning shogirdi bo'lgan. Manbada eshon Eshmuhammad xalifa piri Islom shayxdan va keyin Ne'matulloh Mahviydan ham ta'lif oлган deyilgan [2.–B.19]. Silsila shajarasida ham Ne'matulloh Mahviy orqali Eshmuhammad xalifani Muhammad Islom shayxga bog'lashgan. Vaholanki, Eshmuhammad eshon xalifa va Ne'matulloh Mahviy ikkalasi ham Muhammad Islom shayxning shogirdlari edi. Aslida Eshmuhammad eshon xalifa Muhammad Islom shayxdan ta'lif olib xalifasi darajasiga erishganligi sababidan silsila shajarasida ham Muhammad Islom shayxga to'g'ridan to'g'ri bog'lanishi kerak edi. Rivoyatga ko'ra: kunlarning birida pirlari izdixomda o'tirib “Qo'qon tuzi xo'p totli – da” deganlar. Shunda Eshuhammad xalifa “Bu menga ishora” – deb darxol o'rinalardan turib Qo'qon tomon yo'lga tushgan va tuz koni(“Oq suqon” va “Qora suqon” Sirdaryo orti Asht tumani)dan 4 (1 chaksa – 5,33kg) chaksa tuzni yelkalab ketayotib yo'lda suvsagan, charchagan ozgina mudroq bosib qarasalar g'oyibdan tarvuz, 1 chapiya qatiq paydo bo'lgan, ularni istemol qilgan va yayov tuz orqalab Karruxga yetib borganda yelkasi archilib ketganini ko'rgan piri darhol yelkasini silab, duo qilganida Allohning izni ila jaroxati tuzalgan. Eshmuhammad xalifa 8 – 9 oyda bir necha yillar yurgan shogirdlardan ilgarilab ketib pirining xalifasi darajasiga erishadi va eshonlik irshodi(guvohnoma) oladi. Bunga tajjub bildirgan boshqa talabalarga qarata piri Muhammad Islom shayx Eshmuhammad eshon xalifa haqida “Bu zot chirog'ini piligini o'zları o'rabi kelgan ekan, men esa yoqib qo'ydim xolos” – deb baho bergen ekan. Eshmuhammad eshon xalifaga piri xati irshod (guvohnoma), 2 dona mo'ylari, avrali beqasam chopon, silsila shajarasini berib, Qo'qon, O'sh to Chim Mochingacha so'rashini aytib, avlodlaridan sayyidlardan – da ortiq kishilar chiqishini tilab duo qilibdi. Eshmuhammad xalifaning 3 – avlodi Ibrohimjon eshon bo'lib, avliyo zotlardan Sayyid Buzurukxon eshon qizini nikohiga oлган, avlodlari davom etmoqda. Sayyid Qosimxon o'g'li Sayyid Buzurukxon (1876 – 1953) va Sayyid Buzurukxon o'g'li Sayyid Karimxon(1903–1977)larning qabr(ravza)lari Toshkent viloyati Angiren shahar Ko'chbuloqdagi ziyoratgohdadir. Eshmuhammad eshon xalifaning o'g'li(1 – avlod) Tojixon eshon, (2 – avlood) Mirzaabdulla eshon, (3 – avlod)Ibrohimjon eshon, (4 – avlod)Saodatxon, (5 – avlod) Ilhomjon, (6 – avlod)Sevaraxon(otasining onasi ota tomonidan Eshmuhammad xalifaga

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

avlod, ona tomonidan esa Sayyid Buzurukxonga avlod hisoblanadi). Shoir G'aribiyning devonida Eshmuhammad xalifa nomi keltirilgan. Eshmuhammad xalifaga atab Muhammadali eshon “Ming bir hikmat” yozgan. Mujzib Namongoniy “Pir – u, pironlar” g’azalida Eshmuhammad xalifani o’ziga pir deb bilgan. Hozircha Eshmuhammad eshon xalifaning ”Oshiq qo’llar murabbosi” g’azali hamda bu avliyo zot “Dastagul”, “Eshqul xalifa” nomlari bilan atalganini I.Ostonaqulov tadqiq etgan. Naqshbandiya tariqati silsilasi vakili Eshmuhammad eshon xalifa O’zbekistonning bir nechta viloyatlarida ziyyaratgohlar tashkil qildi. Toshkent viloyati Oxongaron tumanidagi “Parpi ota”(“Avliyo ota”) ziyyaratgohini aslida Eshmuhammad eshon xalifa tashkil qilgan. Parpi esa Eshmuhammad eshon xalifaning murid(shogird)i bo’lgan. Rivoyatga ko’ra: ziyyaratgohdagi ulkan harsangda insonning 5 ta panja izi bo’lib, islom ummatiga 656 – 661 – yillarda xalifalik qilgan Hazrat Ali(r.a)ning panja izlari deyishadi. Ziyyaratgoh tepaligidagi ming yillik qatron daraxtlari esa bu zotning qamchi dastasi bo’lib, shu joyni yo’qotmaslik uchun qamchi dastasini yerga suqib, Dulduliga minib ketibdi, u o’sib daraxt bo’libdi. Islom tarixidan ma’lumki Hazrat Ali(r.a) bu yerga kelmagan. Dastlabki faoliyatini bu tabarruk maskanda boshlagan Eshmuhammad eshon xalifaning xizmatida murid(shogird)laridan Parpi, Patti, Darveshali, Nurmuhammad kabilar bo’lgan. Eshmuhammad xalifa qatron daraxtlari pastligidagi yerga hassasini suqib, shu joyni muridlari bilan kavlashda toshga ro’para keladi, u toshni olib o’rnatib qo’yib, kavlashni davom etganda buloq suvi chiqib undagi turli kattalikdagi toshchalarni esa tepalikdagi qatron daraxtlari atrofiga aylantirib terib chiqishgan va bu yerda Eshmuhammad xalifa o’ziga muridlari bilan hujra quradi va shifo istab, ixlos qilib keluvchi aholini qabul qilib davolagan. Ziyyaratgohdagi magnit maydoni, qatron daraxtlari, “Muqaddas teshik tosh”, “Mangu buloq” shifobaxsh bo’lib, bu yerlik aholi va hayvonlar orasida o’sha vaqtida tarqalgan turli yara – chaqa, qutirish kasalliklarini davolashda amal qilish 3 marta takrorlangan va Allohning izni ila bemorlar shifo topgan. Hanafiy mazhabda payg’ambarlarning merosxo’rlari avliyolar bo’lib, avliyolarning karomatlari haqidir. Eshmuhammad xalifa bu yerlik aholiga din islom, imon, exson, shariat ilmlarini ham o’rgatib doim Haq va xalq xizmatida bo’lgan. Eshmuhammad xalifa “Mangu buloq” yonidagi hujrasida ma’lum vaqt yashab, u yerni muridlari orasidan Parpiga vaqtinchalik boshqaruvini topshirib, o’zi esa qolgan muridlari bilan Kouldi koni tomonda tepalik manzilda yer ostiga “Qorixona”(g’or) kavlab tog’lik aholiga ilm berish uchun chiqib ketadi. Hozirgi Toshkent viloyati Oxangaron tumani Sherobod tepaligi “Parpi ota”(“Avliyo ota”) deb ataluvchi ziyyaratgohni aslida naqshbandiya tariqati piri avliyo zot Eshmuhammad xalifa tashkil etganligi sabab “Avliyo ota”, so’ng murid(shogird)lari orasidan Parpiga bu tabarruk maskanda faoliyatini davom ettirishini buyurib, vaqtinchalik boshqaruvi topshirgan va muridi Parpi esa bu yerda pir(ustoz)i Eshmuhammad xalifaning faoliyatini davom ettirib shayxlik qilgani uchun keyinchalik ziyyaratgoh Parpinining nomi bilan xalq orasida “Parpi ota” deb atalib ketgan. Ziyyaratgoh Buyuk ipak yo’lining o’tish tarmog’ida joylashgan bo’lib O’sh, Qo’qon xonligiga

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

boruvchi Qamchiq va Kandir dovon yo'li o'tgan, ikkinchi tomondan Shosh, Samarqand, Oltin O'rda, Chimket, Turkistonga boradigan savdo karvon yo'llari o'tgan, atrofida qabriston, qishloqlar va keng maydon bo'lib, unda uloq choptirish, Navro'z kabi turli sayl bayramlari nishonlangan, ikki qavatli "Ko'k masjid" tashkil etilib, Xayt, juma namozlari o'qilgan. XX asr boshlarida karvonsaroylar faoliyat ko'rsatgan, ya'ni 1950–1960 – yillargacha saroylar mavjud bo'lган. 1965 – yil Olmaliqda Kambinat AGMK qurilib, bu yerda ham oxak zavodi ishga tushirilgan. "Parpi ota"("Avliyo ota") ziyyaratgohidagi tepalik Sherobod tepaligi deyiladi, unda katta buloqning tubida ummon bor, bu joyni SSSR hukumati tomonidan portlatilgan va traktorlari ham kavlash vaqtida qulab tushavergan. "Parpi ota"("Avliyo ota") ziyyaratgohida 2003 – 2004 – yillarda A.S.Hasanov ilmiy tadqiqot ishlarini olib borib magnit maydoni borligini, bu yerda elektr magnit maydonining kuchlanishi yuqoriligi, inson yurganida bu yerdagi toshlarda qisman magnititning joylashgani hisobiga magnit maydoni to'lqini yuzaga kelishi, komps bilan tekshirilganda ziyyaratgohning nuqtasi bor shu yerda ko'rsatmaydi ya'ni G'arbni Sharq, Sharqni esa Janub ko'rsatadi, o'sha nuqtada o'ng qo'l chap qo'lga aylanib qolishi, bu yerda hamma narsa teskari bo'lib ko'rinishi, oddiy elektrodni qo'lda ushlab yurganda avval ular bir biriga tortishib, so'ng bir biridan qochishini takidlagan[5]. "Parpi ota"("Avliyo ota") ziyyaratgohi keyingi davrlarda o'sha atrofda yashovchi mahalliy aholi vakillari tomonidan boshqarilib kelingan, hatto "Parpi ota" ("Avliyo ota") ziyyaratgohidagi 2 tup sog'lom qatron daraxtlari 2011– yil mart oyida kesib ketilgan. Undan oqilona foydalanish, asrab – avaylash o'rniiga ayrim kimsalarning moddiy manfaati ortidagi baxs munozaralar "jabrlanuvchisi"ga aylanib qolgan va qatron daraxtlari o'rinalarda kesilgan holatda yotibdi. Natijada tarixiy madaniy ekspertizaning 2011 – yil 26 – iyundagi N 7 – sonli hulosasi asosida "Parpi ota" ("Avliyo ota") ziyyaratgohi diqqatga sazovor joy sifatida ro'yxatga olindi. Eshmuhammad eshon xalifaning hayoti va faoliyati hamda ziyyaratgohlarini tadqiq etganlar G'.Mirzaahmedov, Sh.Valiyev, M.Asqarov, A.S.Hasanov, S.I.Karimova, I.Ostonaqulov, M.O'.Amonov va boshqalar. Eshmuhammad eshon xalifa tashkil etgan g'orlaridan biri "Qorixona" haqida xorijlik ya'ni rus arxeolog olimlaridan M.E.Masson, B.Rastovsev, K.Kraxmal, O.Rastovsevlari o'zlarining ajabtovur gipoteza(faraz, taxmin)larini bildirishgan. Toshkent viloyati Oxongaron tumanida joylashgan "Qorixona" ziyyaratgohini aslida Eshmuhammad eshon xalifa tashkil etgan. "Qorixona" g'ori masjid, madrasa, mexmonxona, yotoqxona, omborxona kabilardan iborat bo'lib, bu yerda naqshbandiya tariqati pirlaridan bo'lgan Eshmuhammad eshon xalifa tolibi ilmlarga din islom, imon, exson, shariat ilmlarini o'rgatgan. Manbalarda bu madaniy yodgorlik XVI asrga tegishliligi, ayrimlarida esa mil.avv I – II asrlarga ta'luqliligi aytilgan."Qorixona"(g'ori)ni 16 metr tepalik tagida qazish ishlari bilan qurilgan, tepalikdan yer ostiga 4 ta kirish yo'lagi orqali o'tiladi, yo'lak 10 metr, 2 tomonda 3 tadan 6 ta hujra bor, 3 qavatdan iborat, 18 xona mavjud, balandligi 22 metr keladigan qiya qo'rg'onning ichkarisida umumiy maydoni 60 ga 48 metrli zal va yo'laklar labirinti joylashgan, 2 yarusli labirint o'zaro tor darchalar bilan

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

bog'langan, ularga tuproqli pillapoyalar orqali chiqib tushiladi. Bu yerda birorta mix, yog'och, g'isht, tosh, poydevor ishlatilmagan, lekin keyinchalik ichki tomon ayrim qismlarida alabaster bilan shuvoq qilingan joylari bor, ayrim hujralarining sham turadigan takch (tahmon)lari sham yoritish uchun mo'ljallangan, tepe tomoni ham yorug' tushib turadigan joy bo'lgani bu havoni aylanib turishiga ham hizmat qilgan, qishda iliq, yozda esa salqin bo'lган, kichik hujralarda tolibi ilmlar ya'ni murid(shogird) talabalar ham dars qilishlari, ham tepaga chiqib yotishlariga moslab qurilgan [6]. Eshmuhammad xalifaning 2 – avlod(nevara)lari Mirzaabdulla eshon va Mirzashamsiddin eshonlar “Parpi ota” (“Avliyo ota”) va “Qorixona”(g'ori)ni boshqarganlar qabrlari ham shu ziyyaratgohlarga qo'yilgan. Ayrim manbalarda Mirzaabdullaning qabri “Parpi ota” (“Avliyo ota”) ziyyaratgohi yonidagi tepalikka qo'yilgan deyilsa, ayrim manbalarda “Qorixona”(g'ori)ga qo'yilganligi takidlangan. Mirzashamsiddin eshonning qabri “Qorixona”(g'ori)ga qo'yilgan, shuningdek, keyinchalik Saroy qishlog'idan borib yashab kelgan 3-avlodlardan Hamdamxon eshonning ayoli qabri ham “Qorixona” (g'ori)dan joy olgan. “Qorixona” g'oridagi moddiy hamda madaniy meroslarning aksariyati SSSR hukumati NKVD tomonidan olib ketilgan, yo'q qilingan. Eshmuhammad xalifaning (3 – avlod) Ibrohimjon eshon(buvamning qabri Qo'qon, Xo'jai Turob qabristonida) 1992 – yil 82 yoshida tadqiqotchilar M. Asqarov va shogirdi A.S.Hasanovga bu avliyo zotning ziyyaratgohlari haqida bergen ma'lumotlari ovozli magnit tasmasi Olmaliqda qizi 4 – avlod Saodatxon(buvim)ning uyida o'g'li Begmatjon(amakim) tomonidan yozib olingan. Bu magnit tasmasini Qo'qondagi avlodlar olib ketgan va hozirda tadqiqotchi G'.Mirzaahmedov (1933 – yilda tavallud topgan, 94 yoshda) qo'lida saqlanmoqda. Eshmuhammad eshon xalifa tashkil etgan “Chilmahram”(g'ori) ziyyaratgohi Farg'ona viloyati Beshariq tumani Navkat MFYda joylashgan. “Chilmahram” g'orining o'lchami taxminan: chiqish tepaligi 112 metr, uzunligi 100 metr, eni 3 metr, kengligi 2 metr tashkil etadi, 3 ta hujradan iborat. “Chilmahram” g'origa kiraverish ayvonli, chap tomon kichik hujra darcha(deraza)li bo'lib Eshmuhammad eshon xalifaning katta o'g'li Tojixon eshonning ravza(qabr)i qo'yilgan. Tojixon eshon Haq va xalq hizmatida bo'lib “Chilmahram” g'orida naqshbaniya tariqatida otasi Eshmuhammad eshon xalifaning faoliyatini munosib davom ettirgan avlodlaridan bo'ldi. Rivoyatga ko'ra: Eshmuhammad eshon xalifani sinash uchun Qo'qon xonligidan 40 ta mahram(ulamo) yuboriladi, bu hol avliyoga ayon bo'lib muridlariga 40 ta qoziq qoqishni buyuribdi. Ulamolar kelganda otlari uchun qoqilgan qoziqlarni ko'rib bu zotning avliyo ekanligini sezishib tayyorlab kelgan savollarini berishga tortinishibdi. Eshmuhammad eshon xalifa esa bu 40 ulamoni mehmon qilib, o'tirish izdixomida ularning har biri beradigan savollarini aytib javobini ham bergen ekan. Ular bu voqeani markazga yetkazishganida ulamolar boshlig'i – “Men 40 ta mahram(ulamo) bor desam, u yerda yana biri bor ekan” – deb baho bergen ekan. Shuning uchun ziyyaratgohning nomi “Chilmahram” (chil – qirq, mahram – ulamolar) deb atalgan. Eshmuhammad eshon xalifaning dovrig'ini eshitgan Qo'qon xoni Xudoyorxon jamiki eshonlarni yig'ib sinovdan o'tkazibdi, ya'ni osh ustiga quyon g'shti deb mushuk

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

go'shtin qo'ydiribdi, boshqa eshonlar oshni yebdi. Eshmuhammad eshon xalifaga esa bu ish ayon bo'lib qo'llari bilan ishora qilib: "pisht jonivor" deganda osh ustidagi go'sht mushuk bo'lib turib ketgan ekan. Bu zotning avliyoligini ko'rgan Xudoyorxon "Ustoz(pir)ingiz kim?" - deb 3 marotaba so'raganida, avliyo "Yuqoriga qarang!" – debdi. Xon yuqoriga qarasa pirlari ko'ringan ekan. Shundan so'ng Xudoyorxon avliyoga hurmat ko'rsatib, Eshmuhammad eshon xalifa tug'ilgan joy Chorvoq Turong'iga masjid qudirib beribdi. Hazrat Eshmuhammad eshon xalifa g'or qazib tashkil etgan ziyyaratgohlaridan yana biri Namangan viloyati Pop tumani G'urumsaroy qishlog'ida joylashgan "Odixon eshon" (Eshmuhammad eshon xalifadan so'ng muridi Odixon eshon ziyyaratgohda obodlikni davom ettirib vafot etgani uchun uning nomi bilan atalib ketgan) ziyyaratgohidir. Naqshbandiya tariqati piri Eshmuhammad eshon xalifa Andijon viloyati Shahrixon tumani Saroy qishlog'ida faoliyatini davom ettirdi. Shahrixonsoyning toshqinlari bu avliyo zot duolari bilan to'xtagan, qishloqda suv toshqinlarini qaytarish uchun etaklariga tuproq solib soyning qishloq tomoniga sepibdi va toshqin qishloq pastlikda bo'lismiga qaramay toshmabdi. Andijonda Mamataliboy madrasasida mudarris shayx Islom 40 ta talabaga dars berayotganida Eshmuhammad eshon xalifa kelib qoladi va salom alikdan so'ng mudarris tashqariga chiqib qaytib kirsa, bu avliyo zot talabalarga tavhid dan dars berganini ko'rib "Men shoxlarini o'qitayotgan ekanman, siz esa barglarini o'qitdingiz, bu ilmga men yetao mas ekanman" – deb uzr so'rab, bu zot Eshmuhammad xalifa ekanini talabalarga aytibdi va duosini olishib shayxi islom bo'lib yetishibdilar [7.– B.43]. Eshmuhammad eshon xalifa "Qazoyim yetsa O'shga qo'yinglar" – der ekan. Ammo, umrlarining so'ngi qismi Andijon viloyati Shahrixon tumani Saroy qishlog'iga nasib qilgan Eshmuhammad eshon xalifa 1866 – yilda vafot etdi va qabr(ravza)iga maqbara Niyoziyatamin tomonidan ko'tartirilgan. 1893 – yilda esa Umaraliyamin ta'mirlatdi. 1995 – yilda Abdulkay Mamatisayev tomonidan maqbara qayta ta'mirlatilib Eshmuhammad eshon xalifaning 2 – avlodlaridan nevarasi Nasriddin eshon qabri ham maqbara ichiga olindi. Eshmuhammad xalifa yashagan xonadonda esa avlodlari bu avliyo zot taxorat qilgan va vafotida jasadi yuvilgan joyni yodgorlik sifatida qabrga o'xshatib ko'tarib qo'yildi. Sarmozor gumbaz maqbara yonidagi Saroyxonaqoh jome masjidi tarixi ham bu avliyo zot nomi bilan bog'liq. Eshmuhamad xalifa dastlab bu yerda kichikroq xonaqoh, hujralar qudringan va shundan buyon namozlar o'qib kelingan. Ammo ma'lum vaqt bu masjid faoliyati to'xtab qolgan va 2012-yil 18-maydan Saroyxonaqoh masjidi o'z faoliyatini qayta boshladi. Bugungi kunda xalqning hashar yo'li bilan "Saroyxonaqohpirim", "Sarmozor gumbaz" maqbara ziyyaratgohi obod bo'ldi. Eshmuhammad eshon xalifa tashkil etgan ziyyaratgohlarida yotgan avlodlari qabr(ravza)lari ta'mirlanishi va bu tabarruk maskanlarning barchasi obod bo'lishi, peshlavhalarda tarixi haqida ma'lumotlari berilishi, elektron shakli yaratilishi, ziyyaratgohlari qoshida muzeylari tashkil etilishi, ziyyoratchilar uchun barcha sharoitlar yaratilishi, bu avliyo zot ziyyaratgohlari tarixi to'liq yoritilishi boshqa avliyolar qatorida darsliklardan orin olishi hamda konferensiyalar

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

tashkil etilishi, Islom sivilizatsiyasi markazidan joy olishi, YUNESKO ro'yxatiga kiritilishi shart. Alloh taolo Qur'oni Karimda bunday marhamat qiladi:" Ogoh bo'lingizki, albatta, Allohning valiy(avliyo)lariga xavf yo'qdir va ular g'amgin bo'lmaslar. Ular iymon keltirganlar va taqvo qilganlardir. Ularga hayoti dunyoda ham, oxiratda ham hushxabar bor. Allohning so'zlarini o'zgartirish yo'q. Ana o'sha ulug' yutuqdir".

(Sevaraxon Karimova Ilhomjon qizi Eshmuhammad eshon xalifaning 6 – avlodi).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirzaahmedov G'. Eshmuhammad xalifa haqida xotiralar va hikoyalar to'plami. – Shahrixon. 2017; Saroyxonaqoh jome masjidi tarixi risola. – Shahrixon.2013; Xonaqohpirimning siri nimada? – Shahrixon.2020.
2. Amonov M.O'. Eshmuhammad Xo'qandiy. Science problems.uz 2020.
3. <https://youtu.be/H8kmyYGPf5q> "Parpi ota" ziyyaratgohi tarixi I Ko'xna manzillar ko'rsatuvi. // O'zbekiston tarixi telekanali.
4. <https://youtu.be/AyzbiibKxfY> "O'zbekiston tarixidagi yechilmagan jumboqlaridan biri Qorixona tarixi I Ko'xna manzillar ko'rsatuvi. // O'zbekiston tarixi telekanali.
5. Karimova S.I. Eshmuhammad xalifa ziyyaratgohlarining aholi ma'naviy hayotida tutgan o'rni.B.M.I.– Toshkent. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,2023.
6. Yunus surasi, 62 – 63 – 64 – oyatlar.